

ANDIJON VILOYATI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA YETISHTIRISHGA MOS SHALOT PIYOZI NAVLARINI TANLASH

Rasulova Xamida Aybekovna,
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti,
Akramov Umidilla Ikramdjanovich,
Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti, q.x.f.n.

Annotatsiya. Andijon viloyati tuproq-iqlim sharoitida shalot piyozni nav namunalari eng yuqori umumiy hosildorlik Uralskiy fioletoviy (82,4 t/ga), Zvezdochka (81,3 t/ga) va Krepish (79,9 t/ga) navlarida, shuningdek, umumiy hosil tarkibidagi eng yuqori tovarbop hosil miqdori Uralskiy fioletoviy (78,3 t/ga), Zvezdochka (77,6 t/ga) va Krepish (76,4 t/ga) navlarida aniqlanganligi keltirilgan.

Kalit so'zlar: shalot piyozni, barglar soni, barg uzunligi, barg diametri piyozboshcha vazni, umumiy hosildorlik, tovar hosildorlik.

Аннотация. В почвенно-климатических условиях Андижанской области наибольший валовой урожайности получено сортов лука шалота был Уральский фиолетовый (82,4 т/га), Звездочка (81,3 т/га) и Крепыш (79,9 т/га), также установлено, что наибольшая товарная урожайность из валового урожая определена у сортов Уральский фиолетовый (78,3 т/га), Звездочка (77,6 т/га) и Крепыш (76,4 т/га).

Ключевые слова: лук шалот, количество листьев, длина листьев, диаметр листьев, масса луковицы, общий урожайность, товарная урожайность.

Abstract. In the soil and climate conditions of the Andijan region, the highest total yield of shallot varieties was Uralskiy fioletoviy (82.4 t/ha), Zvezdochka (81.3 t/ha) and Krepish (79.9 t/ha), as well as the total yield It is stated that the highest marketable yield was determined in Uralskiy fioletoviy (78.3 t/ha), Zvezdochka (77.6 t/ha) and Krepish (76.4 t/ha) varieties.

Keywords: shallot, number of leaves, leaf length, leaf diameter, onion head weight, total yield, commodity yield

Kirish. Piyoz oilasi barcha qit'alarda tarqalgan bo'lib, 30 oila va 650 tur kirgan bo'lsa-da, faqatgina 20-25 turi dunyo aholisi tomonidan oziq-ovqatga va 12 turi qishloq xo'jaligida foydalaniladi [1; 2]. Shunga qaramasdan, piyoz turlari dunyoning barcha qismlarida keng tarqalgan: Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya, Osiyo va Afrika. Dunyoda shalot piyozini piyoz (*Allium ascalonicum* L.) ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy – 871,0 ming t., Mali – 696,0 ming t., Yaponiya – 528,0 ming t., Koreya – 406,0 ming t. yetakchi o'rinni egallaydi.

Shalot insoniyatga qadim zamonlardan beri ma'lum, ammo oddiy piyoz kabi keng tarqalmagan. Buning sababi vegetativ ko'paytirish deb hisoblash mumkin, ya'ni bu ko'chat kopaytirish va madaniylashtirishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq [5; 8]. Piyozning bu navi kelib chiqishi masalasida tadqiqotchilar orasida yakdil fikr mavjud emas, ammo ularning aksariyati Osiyoni piyozning bu navi vatani deb hisoblaydilar.

Biroq, shalot piyozni O'zbekistonda keng tarqalmagan bo'lib, bunga sabab rayonlashtirilgan navlarning yetishmasligi, yetishtirish va saqlash texnologiyalarining ilmiy asoslanmaganligidir. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysi tuproq-iqlim sharoitida shalot piyozini ilmiy asoslangan yetishtirish texnologiyasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. Shu sababli, respublikada shalot piyozni o'simligi xorijiy seleksiya manbalarini o'rganish, shuningdek, yetishtirish texnologiyasining ayrim elementlarini takomillashtirishni tadqiq qilishni taqozo qilmoqda.


Tadqiqot uslubiyoti. Tadqiqotning ob'ekti sifatida shalot piyozining Sprint, Uralskiy fioletoviy, Zvezdochka, Izumrud, Kaskad, Krepish, Kunak, Semeyniy, Sibirskiy yantar va Sir-7 navlari urug'i, o'simligi, bargi va hosilli olingan.

Tadqiqotlarda shalot piyozni navlarini 4 ta qaytariqli, 2 qatorli, egatlar uzunligi 5,15 m, nisobli maydon 5,6 m² va ekish sxemasi 50+20/2×7,5 sm nisoblanib, har bir namunada 20 dona o'simliklarda olib borildi. Shalot piyozini 45 kunlik ko'chatidan yetishtirishda navlarning muhim morfobiologik va qiymatli xo'jalik belgilari baholanadi.


Dala tajribalari «Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi» (Azimov B.J., Azimov B.B., 2002) [1], «Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве» (Белик В.Ф., 1992) [2] va «Методические указания по изучению коллекции лука и чеснока» (Казакова А.А., Борисенкова Л.С., 1986) [7] uslubiy qo'llanmalari asosida olib borildi, tadqiqot natijalarining statistik tahlili «Excel 2010» va «Statistica 7.0 for Windows» kompyuter dasturida, 0,95% ishonchlilik oralig'i bilan «Методика полевого опыта» (Доспехов Б.А., 1985) [6] dispersion usuli bo'yicha hisoblandi.

Tadqiqot natijalari. Andijon viloyati tuproq-iqlim sharoitida yetishtirishga mos shalot piyozni nav namunalari 1 tupdagi barglar soni aniqlanganda Semeyniy navida – 3,2 dona, Kaskad navida – 3,3 dona, Krepish navida – 3,4 dona, Uralskiy fioletoviy navida – 3,5 dona, Sibirskiy yantar navida – 3,5 dona, Sir-7 navida – 3,7 dona, Sprint navida – 3,8 dona, Zvezdochka va Kunak navlarida – 3,9 dona, Izumrud navida – 4,2 donadan shakllanganligi aniqlandi (1-jadval).

Shalot piyozni nav namunalari barg uzunligi Sprint navida – 19,3 sm, Uralskiy fioletoviy navida – 23,9 sm, Zvezdochka navida – 19,2 sm, Izumrud navida – 19,4 sm, Kaskad navida – 20,1 sm, Krepish navida – 25,1 sm, Kunak navida – 21,7 sm, Semeyniy navida – 26,2 sm, Sibirskiy yantar navida – 27,6 sm va Sir-7 navida – 29,3 sm ni tashkil qildi. Shuningdek, shalot



1-rasm. Shalot piyoz nav namunalarining 1 tupdagi barglar soni, uzunligi va diametri (2022-2024 yy.)



2-rasm. Shalot piyoz nav namunalarining boshpiyozida piyozcha soni, dona


piyoz nav namunalarining barg diametri Sprint navida – 8,1 mm, Uralskiy fioletoviy navida – 7,3 mm, Zvezdochka navida – 6,5 mm, Izumrud navida – 7,4 mm, Kaskad navida – 7,2 mm, Krepish navida – 8,3 mm, Kunak navida – 7,2 mm, Semeyniy navida – 6,7 mm, Sibirskiy yantar navida – 7,0 mm va Sir-7 navida – 7,9 mm shakllanganligi aniqlandi.

Shalot piyoz nav namunalarining boshpiyozida piyozcha soni 2022-yilda aniqlanganda, Sprint navida – 9 dona, Uralskiy fioletoviy, Sibirskiy yantar navlarida – 7 dona, Zvezdochka navida – 6 dona, Sir-7, Semeyniy, Krepish, Kaskad navlarida – 5 dona, Kunak, Izumrud navlarida – 3 donani tashkil qildi. 2023-yilda boshpiyozida piyozcha soni Sprint navida – 10 dona, Sibirskiy yantar navida – 8 dona, Sir-7, Krepish navida – 7 dona, Uralskiy fioletoviy, Semeyniy, Kaskad navlarida – 6 dona, Zvezdochka navida – 5 dona, Kunak, Izumrud navlarida – 4 donani tashkil qildi (2-rasm).

2-rasmdagi ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda boshpiyozida piyozcha soni Sibirskiy yantar navida – 9 dona, Sprint navida – 8 dona, Kaskad navida – 7 dona, Sir-7, Krepish navida – 6 dona, Uralskiy fioletoviy, Kunak, Izumrud navlarida – 5 dona, Semeyniy,

Zvezdochka navlarida – 4 donani tashkil qildi. Shalot piyoz nav namunalarining 2022-2024-yillarda o'rtacha boshpiyozida piyozcha soni Sprint navida – 9 dona, Sibirskiy yantar navida – 8 dona, Kaskad, Sir-7, Krepish, Uralskiy fioletoviy navlarida – 6 dona, Semeyniy, Zvezdochka navlarida – 5 dona, Kunak, Izumrud navlarida – 4 donani tashkil qildi.

Shalot piyoz nav namunalarining boshpiyoz vazni 2022-yilda aniqlanganda, Zvezdochka navida – 282,5 g, Uralskiy fioletoviy navida – 280,5 g, Krepish navida – 274,1 g, Sir-7 navida – 241,5 g, Kaskad navida – 239,1 g, Kunak navida – 233,7 g, Sprint navida – 232,5 g, Sibirskiy yantar navida – 208,8 g, Semeyniy navida – 187,9 g, Izumrud navida – 175,8 g tashkil qildi. 2023-yilda boshpiyoz vazni Uralskiy fioletoviy navida – 297,9 g, Krepish navida – 296,7 g, Zvezdochka navida – 276,9 g, Sprint navida – 251,6 g, Kunak navida – 248,4 g, Sir-7 navida – 244,1 g, Kaskad navida – 241,8 g, Sibirskiy yantar navida – 224,1 g, Izumrud navida – 188,8 g va Semeyniy navida – 183,9 g tashkil qildi. 2024-yilda boshpiyoz vazni Zvezdochka navida – 294,3 g, Uralskiy fioletoviy navida – 286,5 g, Krepish navida – 268,3 g, Sir-7 navida – 261,5 g, Kaskad navida – 259,1 g, Kunak navida



3-rasm. Shalot piyoz nav namunalarini boshpiyozchasing vazni, g

– 238,4 g, Sprint navida – 227,4 g, Sibirskiy yantar navida – 206,7 g, Semeyniy navida – 195,3 g va Izumrud navida – 174,0 g tashkil qildi (3-rasm).

3-rasmdagi ma'lumotlarga ko'ra, shalot piyoz nav namunalarining 2022-2024-yillarda o'rtacha boshpiyoz vazni Uralskiy fioletoviy navida – 288,3 g, Zvezdochka navida – 284,6 g, Krepish navida – 279,7 g, Sir-7 navida – 249,0 g, Kaskad navida – 246,7 g, Kunak navida – 240,2 g, Sprint navida – 237,2 g, Sibirskiy yantar navida – 213,2 g, Semeyniy navida – 189,0 g va Izumrud navida – 179,5 g tashkil qildi.

Andijon viloyati tuproq-iqlim sharoitida yetishtirishga mos shalot piyoz nav namunalarini tanlash boyicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 2022-yilda eng yuqori umumiy hosildorlik Zvezdochka navida – 80,7 t/ga, Uralskiy fioletoviy navida – 80,1 t/ga va Krepish navida – 78,3 t/ga bo'lgan bo'lsa, ularga nisbatan pastroq Sir-7 navida – 69,0 t/ga, Kaskad navida – 68,3 t/ga, Kunak navida – 66,8 t/ga, Sprint navida – 66,4 t/ga, Sibirskiy yantar navida – 59,6 t/ga, Semeyniy navida – 53,7 t/ga va Izumrud navida – 50,2 t/ga bo'lganligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda eng yuqori umumiy hosildorlik Uralskiy fioletoviy navida – 85,1 t/ga, Krepish navida – 84,8 t/ga va Zvezdochka navida – 79,1 t/ga bo'lgan bo'lsa, ularga nisbatan pastroq Sprint navida – 71,9 t/ga, Kunak navida – 71,0 t/ga, Sir-7 navida – 69,8 t/ga, Kaskad navida – 69,1 t/ga, Sibirskiy yantar navida – 64,0 t/ga, Izumrud navida – 54,0 t/ga va Semeyniy navida – 52,5 t/ga bo'lganligi aniqlandi. Maydon birligidagi 2024-yilda eng yuqori umumiy hosildorlik Zvezdochka navida – 84,1 t/ga, Uralskiy fioletoviy navida – 81,9 t/ga, Krepish

navida – 76,6 t/ga, Sir-7 navida – 74,7 t/ga va Kaskad navida – 74,0 t/ga, bo'lgan bo'lsa, ularga nisbatan pastroq Kunak navida – 68,1 t/ga, Sprint navida – 65,0 t/ga, Sibirskiy yantar navida – 59,0 t/ga, Semeyniy navida – 55,8 t/ga va Izumrud navida – 49,7 t/ga bo'lganligi aniqlandi.

Andijon viloyati tuproq-iqlim sharoitida yetishtirishga mos shalot piyoz nav namunalarini tanlash boyicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 2022-2024-yillarda eng yuqori umumiy hosildorlik Uralskiy fioletoviy navida – 82,4 t/ga, Zvezdochka navida – 81,3 t/ga va Krepish navida – 79,9 t/ga bo'lgan bo'lsa, ularga nisbatan pastroq Sir-7 navida – 71,2 t/ga, Kaskad navida – 70,5 t/ga, Kunak navida – 68,6 t/ga, Sprint navida – 67,8 t/ga, Sibirskiy yantar navida – 60,9 t/ga, Semeyniy navida – 54,0 t/ga va Izumrud navida – 51,3 t/ga bo'lganligi aniqlandi.

Andijon viloyati tuproq-iqlim sharoitida yetishtirishga mos shalot piyoz nav namunalarini tanlash boyicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, umumiy hosil tarkibidagi tovarbop hosil miqdori ham turlicha bo'lib, 2022-yilda Zvezdochka navida – 77,0 t/ga, Uralskiy fioletoviy navida – 76,1 t/ga, Krepish navida – 74,9 t/ga, Sir-7 navida – 66,4 t/ga, Kaskad navida – 65,5 t/ga, Kunak navida – 63,4 t/ga, Sprint navida – 62,7 t/ga, Sibirskiy yantar navida – 57,4 t/ga, Semeyniy navida – 50,7 t/ga, Izumrud navida – 48,5 t/ga tashkil qildi (2-jadvalga qarang).

Umumiy hosil tarkibidagi tovarbop hosil miqdori 2023-yilda Krepish navida – 81,0 t/ga, Uralskiy fioletoviy navida – 80,8 t/ga, Zvezdochka navida – 75,5 t/ga, Sprint navida – 67,8 t/ga, Kunak navida – 67,4 t/ga, Sir-7 navida – 67,1 t/ga, Kaskad navida – 66,2 t/ga, Sibirskiy yantar navida – 61,6 t/ga, Izumrud navida – 52,1 t/ga

1-jadval

Shalot piyoz nav namunalarining umumiy hosildorligi, t/ga

Nav namunalar nomi	Umumiy hosildorlik, t/ga			
	2022-yil	2023-yil	2024-yil	o'rtacha
Sprint	66,4	71,9	65,0	67,8
Uralskiy fioletoviy	80,1	85,1	81,9	82,4
Zvezdochka	80,7	79,1	84,1	81,3
Izumrud	50,2	54,0	49,7	51,3
Kaskad	68,3	69,1	74,0	70,5
Krepish	78,3	84,8	76,6	79,9
Kunak	66,8	71,0	68,1	68,6
Semeyniy	53,7	52,5	55,8	54,0
Sibirskiy yantar	59,6	64,0	59,0	60,9
Sir-7	69,0	69,8	74,7	71,2

Shalot piyozi nav namunalarining tovarbop hosildorligi

Nav namunalar nomi	Tovarbop hosildorlik, t/ga				Umumiy hosildagi tovarbop hosil ulushi, %
	2022-yil	2023-yil	2024-yil	o'rtacha	
Sprint	62,7	67,8	61,3	63,9	94,4
Uralskiy fioletoviy	76,1	80,8	77,8	78,3	95,0
Zvezdochka	77,0	75,5	80,3	77,6	95,4
Izumrud	48,5	52,1	48,0	49,5	96,6
Kaskad	65,5	66,2	71,0	67,6	95,9
Krepish	74,9	81,0	73,3	76,4	95,6
Kunak	63,4	67,4	64,7	65,2	95,0
Semeyniy	50,7	49,6	52,6	51,0	94,4
Sibirskiy yantar	57,4	61,6	56,8	58,6	96,2
Sir-7	66,4	67,1	71,9	68,5	96,2

ga, Semeyniy navida – 49,6 t/ga tashkil qildi. Shuningdek, umumiy hosil tarkibidagi tovarbop hosil miqdori 2024-yilda Zvezdochka navida – 80,3 t/ga, Uralskiy fioletoviy navida – 77,8 t/ga, Krepish navida – 73,3 t/ga, Sir-7 navida – 71,9 t/ga, Kaskad navida – 71,0 t/ga, Kunak navida – 64,7 t/ga, Sprint navida – 61,3 t/ga, Sibirskiy yantar navida – 56,8 t/ga, Semeyniy navida – 52,6 t/ga, Izumrud navida – 48,0 t/ga tashkil qildi.

Andijon viloyati tuproq-iqlim sharoitida yetishtirishga mos shalot piyozi nav namunalari tanlash bo'yicha 2022-2024-yillar natijalariga ko'ra, umumiy hosil tarkibidagi tovarbop hosil miqdori Uralskiy fioletoviy navida – 78,3 t/ga, Zvezdochka navida – 77,6 t/ga, Krepish navida – 76,4 t/ga, Sir-7 navida – 68,5 t/ga, Kaskad navida – 67,6 t/ga, Kunak navida – 65,2 t/ga, Sprint navida – 63,9 t/ga, Sibirskiy yantar navida – 58,6 t/ga, Semeyniy navida – 51,0 t/ga, Izumrud navida – 49,5 t/ga tashkil qildi.

2-jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, umumiy hosildan tovarbop hosil cniqisni Izumrud navida – 96,6 %, Sir-7 navida – 96,2 %, Sibirskiy yantar navida – 96,2 %, Kaskad navida – 95,9 %, Krepish navida – 95,6 %, Zvezdochka navida – 95,4 %, Uralskiy fioletoviy navida – 95,0 %, Kunak navida – 95,0 %, Sprint navida – 94,4 % va Semeyniy navida – 94,4 % bo'lganligi aniqlandi.

Xulosa. Andijon viloyati tuproq-iqlim sharoitida yetishtirishga mos shalot piyozi nav namunalari tanlash bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar natijasida, eng yuqori umumiy hosildorlik Uralskiy fioletoviy navida – 82,4 t/ga, Zvezdochka navida – 81,3 t/ga va Krepish navida – 79,9 t/ga navlarida hamda umumiy hosil tarkibidagi eng yuqori tovarbop hosil miqdori Uralskiy fioletoviy navida – 78,3 t/ga, Zvezdochka navida – 77,6 t/ga va Krepish navida – 76,4 t/ga navlarida aniqlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Азимов Б.Ж., Азимов Б.Б. Сабзавотчилик, полизчилик ва картошкачиликда тажрибалар ўтказиш методикаси. – Тошкент, 2002. – Б. 121-152.
2. Белик В.Ф. Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве. – М: Агропромиздат, 1992. – С. 133-135, 226.
3. Водянова О.С. Лук – шалот сорта Кайнарский // Ж. «Селекция и семеноводство». – Москва, 1982. - № 1. – С. 26. (1)
4. Гринберг Е.Г., Ванина Л.А. Результаты и перспективы селекции лука шалота в Сибири // Материали научно-практической конференции "Состояние и проблемы научного обеспечения овощеводства Сибири" посвященной 70-летию Западно-Сибирской овощной опытной станции. – Барнаул, 2002. – С. 70-76.
5. Гринберг Е.Г., Ванина Л.А., Жаркова СВ., Сузан В.Г., Шликова Е.А., Денисюк С.Г. Научные основы интродукции, селекции и агротехники лука шалота в Западной Сибири (монография). – Новосибирск, 2009. – 208 с.)
6. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – М.: Колос, 1985. – С. 207-223, 268-297
7. Методические указания по изучению коллекции лука и чеснока (сост.: Казакова А.А., Борисенкова Л.С.). – Ленинград, 1986. – С. 12-13.
8. Сузан В.Г. Сортоизучение лука шалота // Ж. "Аграрный вестник Урала". – Новосибирск, 2008. – С. 91-93